

## TA'LIM JARAYONIDA SMART TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH BO'YICHA AMALIY TAVSIYALAR

*Ibroximjonova Gulnozahon Abduqodir qizi*

*Andijon Davlat Universiteti magistranti, O'zbekiston respublikasi,*

*Andijon shahri, Universitet ko'chasi 129 uy.*

*Gmail: Gulnozaibroximjonova@gmail.com*

**Abstrakt.** Ushbu maqolada hozirgi kunda mamlakatimizda internet har bir xonadonga kirib borayotganligi, SMART texnologiyasini qo'llashda "bulutli texnologiyadan" ham foydalanish mumkinligi o'rganildi. Bunda o'qituvchi tomonidan beriladigan barcha ma'lumotlar internet tarmog'ida saqlanadi va undan o'quvchilar foydalanishlari uchun ruhsat beriladi.

**Kalit so'zlar:** ma'ruza matnlari, taqdimotlar, videodarslar, SMART, elektron hisoblash.

**Kirish.** XX asr o'rtalariga kelib insoniyat o'zining eng katta mo'jizasi bo'lmish elektron hisoblash mashinalarini yaratdi. O'tgan vaqt davomida elektron hisoblash mashinalari va ularning dasturiy ta'minotini rivojlantirish yo'lida katta ishlar olib borildi. Natijada hozirgi zamon kompyuterlari yaratilib insoniyat faoliyatining barcha jabhalarida keng va samarali qo'llanilmoqda. Kompyuterlar insonning ko'pchilik muammolarini hal qilishga katta ko'mak berib yirik imkoniyatlar yarata oldi. Jumladan, ta'lim jarayonida ham axborot texnologiyalari o'quvchilarga bilim berishda asosiy vositalardan bo'lib xizmat qilmoqda.

Ilm-fan va texnologiyalarning jadal rivojlanishi, global dunyoda raqobatning ortishi sharoitida har bir davlat va jamiyatning bu jarayonda raqobatbardoshligi yoshlarning intellektual rivoji hamda ularning iste'dodi va qobiliyatlarini to'liq amalga oshirishga e'tibor berishga bog'liq bo'ladi.

**Tadqiqot natijalari.** Tadqiqot natijalariga ko'ra Informatika va axborot texnologiyalari darslarida SMART texnologiyasidan foydalanish samarali ekanligi isbotlangani holda bu texnologiyadan boshqa umumta'lim fanlarini o'qitishda ham foydalanish mumkin.

Hozirgi kunda mamlakatimizda internet har bir xonadonga kirib borayotganligini inobatga olib, SMART texnologiyasini qo'llashda "bulutli texnologiyadan" ham foydalanish mumkin. Bunda o'qituvchi tomonidan beriladigan barcha ma'lumotlar (ma'ruza matnlari, taqdimotlar, videodarslar) internet tarmog'ida saqlanadi va undan o'quvchilar foydalanishlari uchun ruhsat (dostup) beriladi. O'quvchi yoki talaba keyingi darsga qadar istalgan vaqtda va istalgan joyda kompyuter yoki mobil qurilma yordamida elektron manbalardan foydalanishi mumkin.

Odatda ba'zi o'qituvchilar elektron darsliklardan dars jarayonida foydalanib darsni qiziqarli olib borishga harakat qiladilar. Lekin bunda asosan proyektor orqali frontal ko'rinishda vazifalar beriladi va nazorat savollari, test variantlari ham barchaga bir xil namoyish etiladi. Biz esa elektron darsliklardan o'quvchi mustaqil foydalanishini tavsiya qilamiz. Bunda ta'lim muassasasidagi kompyuter sinflariga darsliklar o'rnatiladi va har bir o'quvchi darsdan tashqari vaqtda shug'ullanishi, videodarslarning tushunmagan qismlarini takroran ko'rishi, amaliy mashg'ulotlarni bajarib ko'rishi hamda nazorat testlarini o'zi mustaqil ishlab ko'rib, o'zlashtirish ko'rsatkichini bilib olishi mumkin.

Hulosa. Hozirgi kunda mamlakatimizda internet har bir xonadonga kirib borayotganligini inobatga olib, SMART texnologiyasini qo'llashda "bulutli texnologiyadan" ham foydalanish mumkin. Bunda o'qituvchi tomonidan beriladigan barcha ma'lumotlar (ma'ruza matnlari, taqdimotlar, videodarslar) internet tarmog'ida saqlanadi va undan o'quvchilar foydalanishlari uchun ruhsat (dostup) beriladi. O'quvchi yoki talaba keyingi darsga qadar istalgan vaqtda va istalgan joyda kompyuter yoki mobil qurilma yordamida elektron manbalardan foydalanishi mumkin.

#### **Adabiyotlar:**

1. Abduqodirov A.A., Tursunov S.Q. Ta'limda axborot texnologiyalari. Pedagogika universiteti magistrantlari uchun darslik. T.: "Adabiyot uchqunlari", 2019, 340 b.
2. Yo'ldoshev J.G'., Usmanov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari: Qo'llanma. – T.: O'qituvchi, 2004. – 104 b.
3. Зайцев В.С. Современные педагогические технологии. Учебное пособие. Книга 1. Челябинск, ЧГПУ, 2012-411 с.
4. Сергеев А.Г. Введение в электронное обучение / А.Г. Сергеев, И.Е. Жигалов, В.В. Баландина; Владим. гос. ун-т им. Александра Григорьевича и Николая Григорьевича Столетовых. Владимир: Изд-во ВлГУ, 2012. 182 с.
5. Захарова И.Г. Информационные технологии в образовании: учеб. пособие для студ. высш. пед. учеб. заведений. – М.: Издательский центр «Академия», 2003. – 192 с.
6. Bath,D.&Bourke,J. Getting Started with Blended Learning. Griffith Institute for Hihet Education, 2010.-74 pg.